



ZAMONAVIY QISSALARDA USLUB VA TIL

K.Soliyeva

O'zMU magistranti.

E-mail: kimyoxonsoliyeva310@gmail.com

Tel: +998 99 872 02 99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20067205>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 03-may 2026 yil

Ma'qullandi: 05-may 2026 yil

Nashr qilindi: 07-may 2026 yil

KEYWORDS

*uslub, ijodkor, zamonaviy
qissalar, til, badiiy til, nutq.*

ABSTRACT

Ushbu maqola zamonaviy qissalardagi uslub va til masalalari atroflicha o'rganib chiqilgan va nazariy xulosalar chiqarishga qratilgan.

Adabiyot – so'z san'ati. Adabiyot – buyuk qudrat, nafis va go'zal san'atdir. XX asr o'zbek adabiyoti o'ziga xos an'analar, mukammal adabiy-badiiy asarlar salmog'i, badiiy tafakkur shakli bilan adabiy jarayonda muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, o'zbek adabiyotida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar til va adabiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yurtimiz mustaqilligi qo'lga kiritilgach esa, adabiyotda yanada erkin fikrga, badiiy tafakkur tadriji taraqqiyotiga keng yo'l ochildi. Badiiy adabiyotda til vositalarining qo'llanilishi, muallif uslubi, estetik ta'sirchanlik vositalari yangi bosqichga ko'tarildi. Jahon adabiyotida mavjud bo'lgan ilg'or an'analarni o'zida mujassam etgan va o'ziga xos tafakkur shakliga, ovozigaga bo'lgan o'zbek adabiyoti shakllandi.

Darhaqiqat, ilmiy ishimizda zamonaviy adabiyotdagi qissachilikni tahlil etar ekanmiz, birgina "zamonaviy adabiyot" so'zi mavzumiz chegarasini yanada yaqqolroq aniqlab, ko'rsatib beradi. Ma'lumki, zamonaviy adabiyotshunoslik keng ma'noda jadidlar adabiyotidan bugungi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga olsa, tor ma'noda esa, oxirgi o'ttiz yillikni qamrab oladi. Biz xususan, zamonaviy adabiyotshunoslikdagi qissalarni keng ma'noda o'rganib chiqishga harakat qildik. Negaki, bu davrga kelib nafaqat o'zbek nasrida, balki qissachilikda ham bir qator ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Misol uchun, o'tgan asrning 70-yillarida o'zbek nasriga yangi bir ruhiyat bag'ishlagan, boshqalarga o'xshamagan turfa insonlar taqdirini tasvir ob'yektiga aylantirgan talaygina nosirlar kirib kela boshladi.

Zamonaviy o'zbek qissachiligi badiiy tafakkur evolutsiyasining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davr adabiyotida til masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki badiiy til – asarning estetik qimmatini belgilovchi asosiy vositalardan biridir. Qissa janrida yozuvchi voqelikni qisqa, ammo chuqur va ta'sirchan tarzda ifodalashga intiladi. Shu sababli tilning ixchamligi, obrazlilik va semantik zichligi zamonaviy qissalarning bosh xususiyatlaridan hisoblanadi.

Albatta, davrlar o'tishi bilan, adabiyot ham rivojlanib bordi. Adabiyot bilan birga uning ichki uzvlari hisoblangan janrlar ham rivoj topdi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shu jumladan, qissa janri ham davrlar sinovidan mustahkam o'ta olgan turlardan biridir. Shuning uchun ham zamonaviy adabiyotshunoslikda qissa janri alohida o'rin tutadi. Bu janr nafaqat xalq og'zaki ijodining uzviy qismi sifatida, balki, zamon talablariga mos ravishda o'z shakl va mazmunini muntazam yangilab borayotgan murakkab san'at asari sifatida ham tadqiq etiladi. Qissa – ko'p hollarda milliy ong va madaniyatning aks ettiruvchisi bo'lib, unda xalq hayoti, urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar chuqur yoritiladi. Shu boisdan, qissaning janr sifatidagi taraqqiyoti uning badiiy vositalari, syujet va kompozitsiya elementlari, qahramonlar obrazlari orqali tahlil qilinishi lozim bo'ladi. Zamonaviy qissa an'anaviy folklor janridan farqli o'laroq, zamonaviylik sharoitida til va uslub masalalarida o'ziga xos yangiliklarga ega bo'ladi. Jumladan, til uslubining shakllanishida nasriy yo'nalishning nozikligi, badiiy tafakkur va psixologizmning chuqurligi qissa janrining yangi bosqichini belgilaydi. Shuningdek, qahramon obrazlari xalqning o'tmishdagi mifologik va arxetipik qahramonlaridan boshlab, bugungi zamon murakkab shaxsiyatlariga mos ravishda yanada ko'p qirrali va murakkabroq tasvirlanmoqda. Bu esa qissaning o'ziga xos estetik va g'oyaviy-konseptual imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, zamonaviy adabiyotda qissa janri nafaqat badiiy estetik vazifani bajaradi, balki jamiyatning o'zgaruvchan muhitini, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni aks ettirishda ham muhim vositaga aylanadi. Shu jihatdan til va uslub masalalarining tahlili, ularning zamonaviy badiiy adabiyotdagi o'rnini va ahamiyatini chuqur o'rganish zarurdir. Bu esa ilmiy tadqiqotlarda tilning funksional imkoniyatlari, uslubiy takomillashuvi masalalariga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Uslub – bu muallifning badiiy ifoda vositalarini tanlash va qo'llashdagi o'ziga xosligi, ya'ni uning hech kimga o'xshamagan, o'zgacha bo'lgan ijodiy yo'nalishidir. Shundan kelib chiqqan holda har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'ladi. Bu uslub takrorlanmas bo'lishi bilan birga, ijodkor shaxsiyatini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, til – uslubning asosiy materiali hisoblanadi. Ammo uslub faqat til emas, balki tilning qanday ishlatilishidir. O'z navbatida, ijodiy niyat uslubning qanday bo'lishini belgilab beradi. Misol uchun, ijodkor psixologik asarlarda ichki monolog, murakkab sintaksis birliklardan foydalansa, satirik asarlarda kinoya, istehzolarga urg'u beradi. Realistik asarlarda esa asosan sodda va tabiiy til ko'zga tashlanib turadi. Kitobxon muallif niyatini ko'pincha ayanan uslub orqali anglab yetadi. Chunki til ohangi, tasvir vositalari, nutq shakli kabilarning barchasi muallif pozitsiyasini ochib beradi.

“Uslub bu – ijodkorning o'ziga xosligidir”, – deb ta'rif beradi professor Hamidulla Boltaboyev o'zining “Nasr va uslub” kitobida.[1.3.] Darhaqiqat, uslub deganda har bir yozuvchi yoki shoirning boshqalarga o'xshamaydigan, o'zgalarni takrorlamaydigan tarzda so'z qo'llash mahoratini tushunamiz. Ushbu fikrimizning isbotini Ulug'bek Hamdam fikrlari bilan dalillasak ham bo'ladi. Zero, professor Ulug'bek Hamdam ham xuddi shu ma'nodagi fikrlarni aytib o'tadi.

“Adabiyotda uslub faqat “o'zlik bilan cheklanmaydi, faqat individual belgilarning yig'indisi emas. Unda, albatta, “o'zlik”ni vujudga ketirgan, o'stirgan ijtimoiy muhitning ta'siri bo'ladi, unda “shaxsiylik va umumiylik juda murakkab dialektik birlikda bo'lib, o'zaro shartlangan, bir birini ifodalaydigan” tarzda voqe bo'ladi. Shunga asosan romantik tasvir uslubi, realistik tasvir uslubi, davr uslubi, zamonaviy uslub, milliy uslub, adabiyot uslubi, tasviriy san'at uslubi... degan sohalarning mavjudligini ham tan oladi.

Uslubda obyektivlikning mavjudligini tan olgan holda shuni aytish lozimki, “o‘ziga xoslik”, ijodkor qalbining betakror urishi – uslubning bosh alomati sanaldi. Uslub asarning butun yaxlit sistemasida na‘moyon bo‘luvchi badiiy o‘ziga xoslik” (G.Abramovich), “Adabiy asar unsurlarining bir-biriga bog‘liqligi va ularning yozuvchi talantiga mos tarzda garmonik chatishuvi”dir.

Uslub bir vaqtning o‘zida mazmun ham, shakl ham, g‘oya ham, motiv ham. Bularning barchasi birlashganda asar bus-butunligini uslub ta‘minlaydi. Shunga ko‘ra yozuvchi uslubini so‘zga, tilga – ulardan foydalanishdagi o‘ziga xoslikka bog‘lab qo‘yish noo‘rindir. To‘g‘ri, adabiyot – so‘z san‘ati, til adabiyotning birinchi elementi bo‘lsa-da, uslubni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri – zaruriy elementi sanaladi”. [2.237.]

“Har bir yozuvchining o‘z uslubi borligini yaxshi bilasiz. Voqeani tasvirlash uchun tanlagan so‘zlari ham, ifoda uslubi ham farqli chiqadi. (Qaysi rakursdan turib qaralgani va qanday ijodiy maqsad ko‘zlangani butunlay boshqa mavzu!) Chunki siz boshqa odam – boshqa olamsiz, men ham boshqa. Bas, shunday ekan, asarlarimning tili bu – mening dunyo ko‘rish va uni qabul qilish tabiatim bilan bog‘liq hodisa. Men o‘zim ko‘rgan kechirganlarimni ayni o‘sha til bilan ifoda qilmasam, to‘lib ketgan ko‘nglim bo‘shamaydi, men tanlagan so‘zlar va men qurgan gap konstruksiyalarida mening harakterim mujassam. Binobarin, har bir yozuvchining hikoya qilib berish ohangi, gap qurish uslubi o‘ziga xos bo‘lsa, deb orzu qilaman. Har tomonlama taroshlangan, jilvirlangan, inkubatordan chiqqan jo‘jalardek bir xildagi uslublar bilan adabiyotning rang-barangligiga erishib bo‘lmaydi. Lekin bu bilan mening asarlarimning tili kamchiliklardan butunlay holi, demoqchi emasman, aslo. Aytmoqchi bo‘lgan narsam shuki, “tanqidchilar” davo qilayotgandek ham emas. Mutlaqo! Ularga ikki-uch o‘rinlarda haq berganim holda qolgan ayblovlari bilan baxslashish mumkin, demoqchiman. Nafsilamrini so‘rasangiz, bunday bachki masalalarda munoqasha qilishga umrimni sarflashdan ko‘ra yana bitta asar yozib uning titroqlarida to‘lg‘onish menga yoqimliroq va azizroq tuyuladi. (Shuningdek, masala jiddiylashsa, munoaraga aralashishdan bosh tortilmaydi). Chunki hazor shukurki, aytadigan muhimroq gapim bor, yuragim ham yonishdan to‘xtagan emas!”, – deydi Ulug‘bek Hamdam til va uslub borasida gap ketganda. Darhaqiqat, har bir ijodkor asar yaratar ekan, o‘zining rangi, o‘zining ohangi, o‘zining so‘z qo‘llash mahorati va uslubiga ega bo‘lishi kerak, albatta.

“Badiiy asarda qo‘llangan ifodalar, badiiy tasvir vositalari, frazeologik birikmalar, xalq og‘zaki ijodi na‘munalari – maqol, matal rivoyat va hikoyatlar ijodkorning iste‘dod qirralarini, badiiy tafakkuri va syujet qurish mahoratini ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi,” – deya fikr bildiradi D.Xoldorov. [3.21.]

Qissa hajman roman va povestga nisbatan kichik bo‘lgani sababli unda ortiqcha tafsilotlar kamayadi. Har bir so‘z ma‘no yuklaydi. Yozuvchi fikrni qisqa, lekin ta‘sirchan ifodalashga harakat qiladi. Bu holat zamonaviy qissalarda semantik zichlikni kuchaytiradi. Masalan, birgina detalning o‘zi butun ruhiy holatni ochib berishi mumkin.

Badiiy tilning muhim belgilaridan biri — obrazlilikdir. Zamonaviy qissalarda metafora, metonimiya, epitet, ramz kabi tasviriy vositalar keng qo‘llanadi. Ammo ular ortiqcha bezak sifatida emas, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy yozuvchilar ko‘proq ichki obrazlarga — ruhiy holat tasviriga e‘tibor qaratadilar. Shu sababli obrazlilik tashqi tasvirdan ko‘ra ichki kechinmalar bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi.

Uslub va til o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Zero, Ozod Sharafiddinov aytganlaridek: "Uslub shunday murakkab hodisa bo'lsa ham, ijodning bir sohasi borki, unda uslub birinchi qarashdayoq ko'zga yarq etib tashlanib turadi. Bu yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estatik prinsplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarini his etish qobiliyati ham aniq ko'rinadi".[4.283.]

"Tabiiy savol tug'iladi: badiiy asar yozishda ishlatiladigan til "umumxalq tili", "milliy til", "adabiy til" atamaları bilan yuritiluvchi, biz kundalik aloqa-aralashuvda foydalanadigan tildan boshqa narsami? Yo'q, albatta, badiiy asar yozishda ham "umumxalq tili" yoki "milliy til" deb ataluvchi tildan foydalaniladi, ma'lum darajada "adabiy til" me'yorlariga amal qilinadi. Milliy tildan foydalanib asar yaratildi degani nutq hodisasi amalga oshdi va yozuvda muhrlandi deganidir. Bas, endi badiiy nutq haqida so'z borishi kerak bo'ladi. Albatta, badiiy nutq tilning leksik va grammatik vositalaridan tarkib topgani ham shubhasiz. Faqat endi o'sha leksik va grammatik vositalar milliy tilning emas, shu nutqning uzviga aylangan. Demak, bu o'rinda milliy til yoki badiiy til haqida emas, balki konkret badiiy asar tili haqida gapirish to'g'ri bo'ladi", - deydi adabiyotshunos Dilmurod Quronov.[5.238.]

Ma'lumki, adabiyotning asosiy quroli bu - so'z. So'zlar esa tilda mujassam. Har qanday asar yaratmoq uchun ma'lum bir tildan foydalanamiz. Ijodkor o'z asarini qaysi tilda yaratishidan qat'iy nazar u o'sha tildagi bor unsurlarning barchasidan foydalanishga harakat qiladi. Bugungi zamonaviy adabiyot nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, badiiy asar obrazlilik uchun yozuvchi go'zal tashbeh-u istioralar yoki boshqa tasvir va ifoda vositalari (o'xshatish, ramz, metafora va boshqalar) dan ham unumli foydalanishga intiladi. Ushbu unsurlarning badiiy asardagi o'rni beqiyos, albatta. Bunday unsurlar bilan to'yintirilgan asarni o'qigan kitobxon yangi bir olamda - til unsurlari vositasida yaratilgan badiiy reallikda yashaydi. Badiiy reallik esa, voqelikning oddiygina aksi emas, balki uning ijodkor ongi-yu qalbida qayta yaratilgan aksi bu - badiiy obrazdir. Shu yaratilgan obrazda ijod onlarida yozuvchi qalbida kechgan his-tuyg'ular, o'y-fikrlari ham uni o'sha holatga olib kirgan voqelikning parchalar ham til unsurlari vositasida uyg'unlashib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Болтабоев X. Наср ва услуб. -Т.: "Фан" нашриети,1992.
2. Umarov X. Adabiyot nazariyasi. - Т.: Akademnashr. 2020.
3. Xoldorov D. Ijod mohiyati - uslub xosiyati. - Т.: Turon zamin ziyo, 2017.
4. Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza.- Toshkent:G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1979.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent: "Akademnashr", 2018.